ZARAFSHON VODIYSI ASSIMILYATSION JARAYONLARINING BRONZA DAVRI MODDIY MADANIYATIGA TA'SIRI

Axmadali Asqarov, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi., tarix fanlari doktori,
Djurayev Ikrom Nematovich, Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsıya. Ushbu maqolada Andronovo nomli ko'chmanchi chorvadorlar madaniyati sohiblarining O'rta Osiyoga, Zarafshon vohasi hududlariga kirib kelishi va o'troq aholi madaniyati bilan qorishuvi yoritilgan. Bundan tashqari miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalaridan Yevrosiyo chorvador oriylarining janubga migratsiyasi arxeologik yodgorliklar va moddiy manbalarda aks etishi berilgan.

Kalit so'zlar: Andronovo madaniyati, migratsiya, ko'chmanchi chorvador, lyapis-lazur, aqiq, feruza, zmeevik, xrizofraz, yashma, kaolin, marmar, dasht madaniyati, Gurdush, Gujayli, Mo'minobod, Saygus, Sarazm.

ВЛИЯНИЕ АССИМИЛЯЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ ЗАРАФШАНСКОЙ ДОЛИНЫ НА МАТЕРИАЛЬНУЮ КУЛЬТУРУ БРОНЗОВОГО ВЕКА

Аннотация. В данной статье освещается приход кочевников-скотоводов Андроновской культуры в Среднюю Азию, в Зарафшанскую область и смешение их с культурой оседлого населения. Кроме того, в археологических памятниках и материальных источниках отражена миграция евразийских арийцев-скотоводов на юг с середины II тыс. до н.э.

Ключевые слова: андроновская культура, миграция, скотоводческое племя, ляпис-лазурь, агат, бирюза, змеевик, хризофраз, яшма, каолин, мрамор, степная культура, Гурдуш, Гуджайли, Муминабад, Сайгус, Саразм.

THE INFLUENCE OF ASSIMILATION PROCESSES OF THE ZARAFSHAN VALLEY ON THE MATERIAL CULTURE OF THE BRONZE AGE

Abstract. This article highlights the arrival of the nomadic cattle breeders of the Andronovo culture in Central Asia, in the Zarafshan region and their mixing with the culture of the settled population. In addition, the archaeological monuments and material sources reflect the migration of the Eurasian Aryan pastoralists to the south from the middle of the 2nd millennium BC.

Keywords: Andronovo culture, migration, pastoral tribe, lapis lazuli, agate, turquoise, serpentine, chrysophraz, jasper, kaolin, marble, steppe culture, Gurdush, Gujaili, Muminabad, Saigus, Sarazm.

Kirish. Miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmi boshlarida Janubiy Orol hududlariga kirib kelgan shimoliy mintaqalarning chorvador dasht qabilalari janubiy Qizilqum orqali Buxoro vohasining shimoli-g‘arbiy hududlariga, Zarafshon vodiysining Mohondaryo quyi havzalariga ham kirib keladilar. Ular ushbu zaminning Zamonbobo madaniyati aholisini an’anaviy rivojlanish jarayoni ildizlariga putur yetkazib, ularni iqtisodiy va etnomadaniy inqirozga olib keladi.

Dashtliklar tezda butun Zarafshon vodiysi bo‘ylab keng tarqaladi. Ularning moddiy madaniyat izlari Zarafshon vodiysining deyarli barcha hududlarida mavsumiy manzilgohlar, qabriston va yolg‘iz qabrlar ko‘rinishidagi yodgorlik sifatida bizgacha yetib kelgan. Ular quyidagilar:

Gujayli yoki Gurdush manzilgohlari Qorako‘l tumanining shimoli-g‘arbiy chegaralarida, ko‘chma qumliklar oralab o‘tgan Mohondaryoning Gujayli (Gurdush) o‘zani sohillari, Zamonbobo ko‘lidan to Kichiktuzkon, Kattatuzkon va Kaptarning qumigacha yoyilgan toshqin suv chegaralari, shuningdek, Qashqadaryoning Mohondaryo tomon irmoq otgan quyi o‘zanlarining Qumsulton chegarasigacha cho‘zilgan o‘zanlari havzalarida 30 ta punktda mavsumiy manzilgohlar topib o‘rganilgan [1].

Gujayli qabristoni Chorvador urug‘ jamoalarining qadimgi qabristoni 1953-yilda Y.G‘ulomov tomonidan Zamonbobo ko‘lidan 3 km.lar chamasi shimoliy-g‘arbda, ustki qismi shamol va qor-yomg‘irlar ta’sirida buzilgan taqir qatlami maydonidan topilgan. Ushbu qabristondan topilgan sopol idishlar shakliga ko‘ra, ko‘zasimon tuvak va xurmachalardan iborat. Ular ostiga tosh terilgan, usti yopiq, yarim yer osti xumdonlarda, cho‘g‘ ustiga terilib pishirilgan. Shu bois sopollar qoramtir kulrang tusda, idish devorlari qalin, og‘ir, osti tekis kesilgan konus shaklida yasalgan. Idishlarning sirti chizma naqshlar bilan bezatilgan. Bezaklar chizma va chekich gulli uslubda egri va kesilgan chiziqlar qatoridan, archasimon tik va egri qisqa chiziqlardan to ochiq va yopiq uchburchak, murakkab meandrlar, ichi chiziqlar bilan qoplangan romb va tomchi gulli naqshlar kompozitsiyasidan iborat. Ular idish sirtiga bir tekis tartibda chizilgan. Idishlar naqshi ularning gardish ostida ham uchraydi. Xurmacha bo‘g‘izi naqshlanmagan, naqshlar asosan idishlar yelkasi va qornini qoplagan. Xuddi shunday tartibda naqshlangan sopol idishlar Gujayli manzilgohlarining barchasida uchraydi. Demak, Gujayli yodgorliklarining har ikkala turi ham bir madaniyat, ya’ni Tozabog‘yob tipidagi cho‘l mintaqalari qabilalari madaniyatiga tegishlidir.

Manzilgohlarda keramikadan tashqari aksariyat ko‘pchilikni tashkil etgan arxeologik materiallardan biri bu chaqmoqtoshdan yasalgan ikki qirrali paykonlardir. Ular asosan, madaniy qatlami buzilib ketgan mavsumiy manzilgoh maydonlaridan terib olingan. Qabrlarda bironta ham tosh paykon uchramaydi. Ulardan ikkitasi Gujayli 9 manzilgohining ostidan topilgan. Ular ishlanish texnikasi va shakli jihatidan lavr bargsimon shaklda bo‘lib, Zamonbobo paykonlaridan mutlaqo farq qilmaydi. Ayniqsa, oynadek silliq va tiniq ishlangan tosh munchoqlar

va chaqmoqtoshdan yasalgan paykonlar kelib chiqishi jihatidan Zamonbobo madaniyatiga borib taqaladi. Tosh munchoqlar G. Ilinskiy xulosalariga ko‘ra, lyapis-lazur, aqiq, feruza, zmeevik, xrizofraz, yashma, kaolin, marmar va kreminlashib borayotgan ohak toshlardan yasalgan [2]. Madaniy qatlamlari buzilgan Gujayli manzilgohlaridan topilgan bu tosh munchoq va paykonlar Zamonbobo madaniyati jamoalariga tegishli bo‘lishi kerak. Chunki, Andronovo oriylari ushbu zaminga kirib kelgan damlarda mazkur joylarda zamonboboliklar yashar edilar. Chorvador Andronovoliklarning bu joydagi harbiy-siyosiy ustunligi Zamonbobo jamoalari turmush tarzini mutlaqo o‘zgartirib yuborgan bo‘lishi tarixiy haqiqatga yaqindir.

Qizilqir 1 yolg‘iz qabri va Qizilqir II manzilgohi. Qizilqir 1 yolg‘iz qabri 1958-yilda Ya. G‘ulomov tomonidan Koxishtuvon cho‘lining Qizilqir nomli antik davr qishloq xarobasida arxeologik qazishmalar olib borish chog‘ida, uning ostidan topilgan. Qabr oval shaklida, odam skeleti g‘ujanak holatda chap tomoni bilan, bosh chanog‘i g‘arbga qaratilgan holda yotgan. Qabr juda inventarlarga boy bo‘lib, sakkiz raqam shaklida bronza baldoq, skeletning ko‘krak qismidan oltin va qimmatbaho toshlardan ishlangan munchoqlar va qabrning g‘arbiy qismida 2 ta sopol idish topilgan [3].

Novqatepa manzilgohi 1960-yilda Y. G‘ulomov Zarafshon vodiysi bo‘ylab arxeologik izlanishlar olib borish chog‘ida antik davri yodgorligi Novqatepada bo‘lib, uning maydonidan bronza davrining chorvador urug‘ jamoalariga tegishli sopol idish bo‘lagini topib oladi. Sopol parchasida ikki chiziq chizma naqshlar bo‘lib, uning og‘zi osti bo‘ylab odimlovchi uchburchaklar, yelkasida ikki qator tengyonli uchburchaklar bilan naqshlangan edi. Sopol naqshining to‘g‘ri chiziqlarga bo‘linishi va idishning naqshi Andronovo madaniyatining Fyodorov bosqichiga monand bo‘lib, uning yil sanasini miloddan avvalgi XIII asr bilan belgilash mumkin.

Sazog‘on–2 manzilgohi Zarafshon vodiysining o‘rta havzasi hududlarida Sazog‘on yodgorliklari majmuasida nafaqat mezolit va neolit, balki turli etnik guruhlarga tegishli ob’ektlar orasida bronza davriga tegishli Sazog‘on–2 manzilgohi ham topilgan [4]. Uning maydonida turli davrlarga oid sopol parchalari kompleksi orasida dasht qabilalar madaniyatiga tegishli sopollar ham uchraydi. 1981-yilda ushbu manzilgohda arxeologik izlanishlar olib boriladi. Ushbu ob’ektda solingan stratigrafik shurfning yer sathidan 40 smlar chamasi chuqurligida, 20 sm qalinlikda zamonaviy xo‘jalik ekinlari tufayli buzilib ketgan madaniy qatlam qoldiqlari uchraydi. Ushbu qo‘zg‘atilgan qatlamdan hayvon suyaklarining parchalari, Kuchuk 1 va Andronovo madaniyatlariga tegishli sopol parchalari, tosh va bronzadan ishlangan mehnat qurollari topilgan. Bronza predmetlari orasida ikki parrakli lavr bargsimon paykon ham bo‘lib, u dasht qabilalari madaniyatiga tegishli edi [4].

To‘qayli manzilgohi 1987 yilda Samarqand shahridan 16 km sharqda, Zarafshon daryosining chap sohilidan topilgan. Uni arxeolog N.A. Avanesova boshchiligida SamDU arxeologlari o‘rganadi [4]. Ob’ektni mikrotopografiyasini o‘rganish vaqtida Zarafshon suvi o‘pirgan yer kesmasida yer sathidan 2,4 *m* chuqurlikda yerto‘la qoldig‘ining bir cheti uchraydi. Aynan shu joyda, 216 kvadrat

metr maydon ochilib, yerto‘la qoldig‘i to‘lig‘icha ochiladi. U to‘rtburchak shaklida bo‘lib, uning atigi 3x3 m. maydoni saqlanib qolgan. Yerto‘laning katta qismini Zarafshon suvi buzub ketgan.

Yerto‘la maydoni hududida saqlanib qolgan madaniy qatlam yer sathidan 60 sm chuqurlikda uchray boshlaydi. Yerto‘la ichida saqlangan madaniy qatlam 70 sm gacha boradi [4]. Uning ustki qismi va butun qazishma maydoni so‘ngi davr xo‘jalik qurilishlari tufayli buzilib ketgan. Qazishma davomida, qo‘zg‘atilmagan madaniy qatlam yuqori chegarasidan boshlab tosh devor qoldiqlari chiqa boshlaydi. Yerto‘laning saqlangan devori uch qator tosh balandligida bo‘lib, uning yuqori qismi so‘ngi davr qurilishlari tufayli buzilib ketgan ko‘rinadi. Chunki, devor osti sathida yerto‘la tag qismi (poli) ochilgan. Yerto‘la tag qismi somon suvoq bilan suvalgan. Yerto‘la ichidan ko‘plab hayvon suyaklari, qo‘lda va kulolchilik charxida yasalgan sopol parchalari, chaqmoqtoshdan yasalgan nafis paykonlar, toshbolta va toshgurzi siniqlari, bronzadan yasalgan turli bezaklar, chig‘anoq, lojuvard va giltoshdan yasalgan munchoqlar, sopol idishlarga sayqal beruvchi suyakdan yasalgan kulolchilik pichoqlari va boshqalar topilgan [4].

Yerto‘ladan 20 metrlar chamasi g‘arbda, daryo qirg‘og‘ining o‘pirilgan tik joyida, yer sathidan 2,2 m. chuqurlikda ruda eritish qo‘rasi topiladi. Qo‘ra aylana shaklida bo‘lib, uning diametri 40 sm, chuqurligi esa 60 sm bo‘lgan. Uning ichida qalinligi 30 smli ko‘mir kul qatlami bo‘lib, qatlamda olovda yongan suyak parchalari uchraydi. Qo‘ra devorlari 15sm.gacha qalinlikda toshqolga aylangan. Qo‘ra atrofida keng maydonda izlanishlar olib boriladi. Natijada 32 kvadrat metr maydon doirasidan (bu metallni rudadan ajratib olish ustaxonasi bo‘lgan ko‘rinadi) mis toshqollar, oksidlangan ruda qoldiqlari, metall eritish qozonlarining parchalari tosh bolg‘a va xovoncha dastalarining siniqlari, rudani maydalash uchun granit tagtoshlari, rudani yanchib maydalovchi tosh qurollar topib olingan [4].

E’tiborli tomoni shundaki, To‘qayli manzilgohi va ustaxonasi sopollari majmuasida dasht etnik guruh jamoalari madaniyatini xarakterlovchi sopol idishlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ular bankasimon, tuvaksimon idishlar bo‘lib, ularning sirtiga shtrixlangan uchburchak, siniq chiziq shaklida tasvirlangan naqshlar, to‘lqinsimon va tarnovsimon shakllar bilan bezatilgan. Shakllar tasviri to‘g‘ri bosma va qo‘ng‘irali bosma usulda bajarilgan. Ba’zi idishlarda archa shaklidagi naqshlar ham uchraydi. Bularning barchasi o‘z uslubi va texnik jihatlari bilan Andronovo madaniyatining Olako‘l varianti sopollarini eslatadi. To‘qayli arxeologik kompleksida dashtliklar madaniyatiga xos suyakdan yasalgan to‘qa ham topilgan.

Saygus mozori 1980-yillarda Urgut tumanining Saygus qishlog‘ida shaxsiy xo‘jalik tomorqasida chuqur qazish vaqtida oval shakldagi chuqurchada oyoq-qo‘llari buklanib, chap yoni bilan yotqizilgan odam skeleti topiladi. Skeletning bilak suyagida bronza listdan ishlangan bilakuzuk, ko‘krak qafasi ustida silindrokonus shaklida bronza munchoqlar, oyoq suyagida bir shoda bronza biser munchoq bo‘lgan. Skeletning bosh tomonida bitta tuvaksimon sopol idish, ko‘krak suyaklari yaqinida jez oyna topilgan[5]. Skeletning yotish holati, bronza bilakuzuk va sopol idish, uning sirtiga chizilgan naqshiga ko‘ra, ushbu qabrni bronza davri dasht qabilalari madaniyatiga tegishli, degan xulosaga kelish mumkin.

Mo‘minobod qabristoni, 1965- yilda Mo‘minoboddan ashyoviy dalillarga boy qadimgi qabr topib o‘rganiladi. Qabrda ayol kishining skeleti chap biqini bilan oyoq-qo‘llari buklangan holatda uchraydi. Skeletning bosh tomonida 2 ta sopol xurmacha, ko‘krak qafasida munchoqlar, quloq qismida bronza baldoq, bilagida qo‘shaloq bilakuzuklar, oltin suvi yurgizilgan halqalar, bronza oyna va boshqa qator buyumlar yotganini kuzatadi. Mo‘minobod qabristonini o‘rganish ishi bilan arxeolog A. Asqarov shug‘ullanadi [6].

Yuqorida qabrlarga skeletlar yon tomoni bilan, oyoq-qo‘llari bukilgan holatda, boshi g‘arb tomonga burib ko‘milgan edi. Qabrda skeletlarning bosh tomonida 2-3 tadan sopol idishlar qo‘yilgan. Qabrlarning birida ayol skeletining quloq qismida karnaygul shaklida ishlangan bronza baldoq, qabr ichida mayda munchoq shodalari sochilib yotgan. Bundan tashqari, 7 ta qabrda bronza bilakuzuk topilgan. Mozorlarning birida tosh yorg‘uchoq, boshqa birida skeletning quloq qismida karnaygul shaklida ishlangan oltin baldoq topilgan. Shunga o‘xshash oltin baldoq skeletning burun tomonidan topilgan. Jasadlarning qo‘llarida uchtadan bronza bilakuzuk bo‘lgan. Skeletining chap ko‘krak tomonida suyakdan ishlangan musiqa asbobi-nay topilgan. Naychaning o‘rta qismida romb shaklida teshikchasi bor. Uning ikki uchi qiyaroq kesilib, ustiga oynadek silliq sayqallangan. Naycha teshikchasi atrofida qizil rang izlari uchraydi. Bu nay O‘rta Osiyo hududida bronza davriga oid ilk bor topilgan musiqa asbobi hisoblanadi. Uning birinchi musiqa asbobi sifatida ilmiy ahamiyati kattadir. Qabr ashyoviy dalillari orasida bronzadan yasalgan bilakuzuklar, karnaygul shaklli baldoqlar, munchoq va biserlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Bilakuzuklarning uchlari ilon boshiga o‘xshash shaklda ishlangan. Oltin suvi yurgizilgan karnaygulli sirg‘alar Janubiy Sibir va Qozog‘iston dashtlarining Andronovo madaniyati chorvador qabilalari mozorlarida ham uchraydi [7]. Bunday shakldagi sirg‘alar Andronovo madaniyatiga tegishlidir.

Mo‘minobod qabristonidan topilgan odam bosh chanoqlari O‘rta Osiyoning neolit va eneolit davri odamlari bilan genetik jihatdan yaqin ekanligini ko‘rsatadi[8]. V. Zezenkova xulosasiga ko‘ra, o‘rganilgan bosh chanoqlar tip jihatidan Andronovo odamlarini eslatsa-da, ammo ular dolixokefal, ya’ni uzunchoq oval shaklida, Andronovo odamlaridan yuz tuzilishini uzunchoqligi va o‘rtacha tor qirra burun hamda bodom qovoqligi bilan ajralib turadi.

Mo‘minoboddagidek Andronovo madaniyatiga xos ashyoviy dalillarning O‘rta yer dengizi antropologik tipidagi odamlar skeleti bilan birga uchrashi O‘rta Osiyo dasht qabilalari madaniyatida ko‘p uchraydi. Antropolog T. A. Trofimova Tozabog‘yob madaniyatiga tegishli Ko‘kcha 3 qabristoni antropologik seriyasi ichida Andronovo madaniyatiga xos protoyevropoidlar bilan O‘rta Osiyoning qadimgi aholisiga xos O‘rta yer dengizi tipi aralash holda ko‘p uchrashini bildiradi [9].

T. Trofimova bu holatdan xulosa qilib, ushbu tip O‘rta Osiyo va Shimoliy Hindiston (Pokiston) hududlarida bronza davrida keng tarqalgan qadimgi O‘rta yer dengizi tipi bilan umumiy o‘xshashlikka egadir, degan xulosaga keladi [9]. Ko‘rinib turibdiki bularning barchasi bir tomondan, O‘rta Osiyo bronza davri dasht madaniyatlari aholisining etnik tarkibi qanchalar murakkab ekanligidan dalolat

bersa, ikkinchi tomondan, turli etnik guruhlar o‘rtasida iqtisodiy xo‘jalik va etnomadaniy aloqalarning keng ko‘lami haqida tahliliy xulosalarga olib keladi, ya’ni o‘zbek xalqi etnogenezining boshlanishi bronza davriga borib taqalishiga ishora qiladi.

Dashti Qazo qabristoni Dasht qabilalarining ma’dan konlariga bo‘lgan extiyoji ularni Yuqori Zarafshonda ochilgan mis va qo‘rg‘oshin konlari yaqinida joylashishi va bu joyda o‘z manzilgohlarini barpo etishiga, bu yerda ularning qabristonini paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Darhaqiqat, Zarafshon tog‘ tizmalarining vodiyga yaqin joyida, qadimdan mahalliy aholi orasida Kanchach, Yori va Jilau nomlari ostida polimetall konlari ma’lum bo‘lib, arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, ana shu ma’dan konlari tufayli Zarafshon vodiysining boshlanish nuqtasida eneolit va bronza davrining Sarazm qishlog‘i tashkil topgan. Qishloq aholisining an’anaviy mashg‘uloti dehqonchilik bo‘lib, qadimgi dehqon jamoalar Zarafshon tog‘ tizmalarining tog‘ oldi adirlari oralab vodiy tomon yo‘l olgan Otchopar soyi hosil qilgan Oyimko‘l shimolidagi adirlikka kelib o‘rnashadilar. Sharqdan g‘arbga cho‘zilgan adirlikning uzunligi 1,5 km, kengligi sharqda 800 m., g‘arbda 400 m. Ushbu adirlik Zarafshon daryosi bilan Oyimko‘l oralig’ida joylashgan. Bu joylar qadimda “Sari-zamin” atalib, yodgorlik sug’dcha “Sarazm”, ya’ni yerning boshlanishi, vodiyning boshlanishi ma’nosini anglatgan. Aslida, Sarazmda Zarafshon vodiysi qadimgi dehqon jamoalarining qishlog‘ining paydo bo‘lishi, ushbu zaminning ma’dan konlarini o‘zlashtirish bilan bog‘liq edi. Natijada, Sarazm Zarafshon vodiysining metallurgiya markazlaridan biriga aylanadi. Tezda Sarazm metallurgiya markazining dovrug‘i nafaqat janubiy mintaqalar, balki shimoliy chorvador jamoalariga ham yetib boradi.

Miloddan avvalgi II ming yillik o‘rtalaridan Yevrosiyo chorvador oriylarining janubga migratsiyasi munosabati bilan bu ma’dan konlari ular qo‘liga o‘tib, Dashti Qazoda, ya’ni bevosita konlar yaqinida chorvador oriylarning manzilgohlari va qabristoni paydo bo‘ladi. Ushbu tarixiy voqeliklardan yodgorlik sifatida bizgacha ma’dan konida ishlagan tutqunlarning qabristoni saqlanib qolgan.

Foydalanilgan ababiyotlar

1. Археологическая поездка в северо-западную часть Каршинской степи // ИМКУ. Вып. 5. – Ташкент, 1964. – С. 28-36;
2. Аскаров А. Могильник эпохи бронзы в Муминабаде. КСИА АН СССР. Вып. 122. – Москва, 1970. – С. 65.
3. Аскаров А. Памятники андроновской культуры в низовьях Зарафшана // ИМКУ. Вып. 3. – Ташкент, 1962. – С. 28-35;
4. Аскаров А. Раскопки могильника эпохи бронзы в Муминабаде // ИМКУ. Вып. 8. 1969. – С. 56-62.
5. Гулямов Я.Г. и другие. Первобытная культура в низовьях Зарафшана. – Ташкент, 1966. – С. 153.
6. Джураев И. Миграционний процес центрально азиатских скотоводческих племен на юг //традиційні та інноваційні підходи до наукових досліджень. 2021. – С. 225.

7. Трофимова Т. А. Древнее население Хорезма по данным антропологии. МХЭ. Вып. 2. – М., 1959. – С. 15-29.
8. Jo‘raqulov M., Avanesova N. A., Amirqulov B. A. Zarafshon vohasining ibtidoiy madaniyati. – Samarqand, 1994. – B. 112 .